

XORIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLARIDA FIDOIYLIK TUSHUNCHASINI IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI O'RGANILISHI

Yoqubova Hayotxon Abduqahhor qizi

Andijon davlat universiteti

Umumiy psixologiya kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16519351>

Annotatsiya: yoshlarda fidoyilik tushunchasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish, shuningdek, fidoyilikni shakllantirishga xizmat qiluvchi psixologik omillarni empirik jihatdan asoslash va ularni rivojlantirishga qaratilgan psixologik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: fidoyilik, ijtimoiy psixologiya, xorijiy tadqiqotlar, prososial xatti-harakat, empatiya, fidoyilik motivlari, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy ong, madaniyatlararo psixologiya, g'amxo'rlik, normativ xulq, evolyutsion psixologiya, ijtimoiy ta'sir, fidoyilik va shaxsiy manfaatlar, psixologik empatiya, simpatik reaksiya, ijtimoiy javobgarlik hissi, individualizm va kollektivizm, xulq-atvor modellar, ijtimoiy-emosional rivojlanish, fidoyilikning psixologik modeli.

Аннотация: Цель исследования – выявить факторы, влияющие на формирование социально-психологических особенностей концепции самоотверженности у молодёжи, раскрыть их содержание и сущность, а также эмпирически обосновать психологические факторы, способствующие формированию самоотверженности, и разработать психологические рекомендации, направленные на их развитие.

Ключевые слова: альтруизм, социальная психология, зарубежные исследования, просоциальное поведение, эмпатия, мотивы альтруизма, межличностные отношения, общественное сознание, кросс-культурная психология, забота, нормативное поведение, эволюционная психология, социальное влияние, альтруизм и эгоизм, психологическая эмпатия, сочувственная реакция, чувство социальной ответственности, индивидуализм и коллективизм, поведенческие модели, социально-эмоциональное развитие, психологическая модель альтруизма.

Annotation: the aim of the study is to identify the factors influencing the formation of the socio-psychological features of the concept of selflessness in young people, to reveal their content and essence, as well as to empirically substantiate the psychological factors that serve to form selflessness and to develop psychological recommendations aimed at their development.

Keywords: altruism, social psychology, foreign studies, prosocial behavior, empathy, motives for altruism, interpersonal relationships, social consciousness, cross-cultural psychology, caring, normative behavior, evolutionary psychology, social influence, altruism and self-interest, psychological empathy, sympathetic reaction, sense of social responsibility, individualism and collectivism, behavioral models, socio-emotional development, psychological model of altruism.

Mustaqillikdan keyingi davrda O'zbekistonda insonparvarlik, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar va shaxsning ma'naviy-psixologik rivojlanishi bilan bog'liq masalalar ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, fidoiylilik, mehribonlik, altruizm, empatiya, shaxslararo munosabatlar va axloqiy fazilatlarining shakllanishi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar yosh avlod tarbiyasini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan chuqurroq ochib berishga xizmat qilmoqda.

O'zbek psixologik maktabida fidoiylilik va mehr-oqibat kabi fazilatlar, odatda, xalqning tarixiy-madaniy merosi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari hamda milliy o'zlik bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Bu fazilatlar ko'plab olimlar tomonidan shunchaki shaxsiy sifat emas, balki ijtimoiy shartlangan, ijtimoiy ongda mustahkam o'rin egallagan va tarbiyaviy omillar ta'sirida shakllanuvchi murakkab xususiyatlar sifatida baholanadi.

Fidoiylilik, ayniqsa, shaxsning o'z manfaatlarini umumiy manfaatlar yo'lida ongli ravishda cheklay olishi, maqsadga yo'naltirilgan va ijtimoiy jihatdan foydali harakatlarni amalga oshirishga tayyorligi bilan tavsiflanadi. Bu jihatlar yosh avlod uchun ayniqsa dolzarb bo'lib, ularning jamiyatga nisbatan mas'uliyat hissi, ijtimoiy faolligi va ongli fuqarolik pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Fidoiylilik fazilatining shakllanishida shaxsiy tajriba, ijtimoiy normalar, ma'naviy muhit va axloqiy tamoyillar asosiy psixologik determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek olimlaridan V.M. Karimova, G.T. Jo'rayev, M.A. Nurmatova, Sh. Karimova, E. Musaev, S. Tursunov, D. Nurmatov, B.M. Botirov, N.B. Atabayeva va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida shaxsning axloqiy rivojlanishi, ijtimoiy ongning shakllanishi, shaxslararo ta'sirlar va psixik yetuklik kabi masalalarni yoritganlar. Ularning ilmiy ishlari orqali yoshlar shaxsiyatida fidoiylilik, mehr-oqibat, empatiya kabi ijtimoiy-axloqiy fazilatlarining psixologik shakllanishi, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va tarbiya muhitining roli chuqur tahlil etilgan.



O'zbekistonning yetuk psixolog olimasi, professor Vasila Karimova o'zining "Ijtimoiy psixologiya", "Oila psixologiyasi" hamda "Nikoh oldi yetuklikni shakllantirish muammosining ilmiy-nazariy asoslari" kabi ilmiy asarlarida fidoiylilik tushunchasini shaxsning ijtimoiy-axloqiy fazilati sifatida chuqur tahlil qiladi. Olimaning fikriga ko'ra, fidoiylilik – bu shaxsning boshqalarga, oilaga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli, mehrli va sadoqatli munosabatda bo'lishidir.

Vasila Karimovaning tahlilicha, fidoiylilik insonning ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u empatiya, altruizm va axloqiy yetuklik kabi sifatlar bilan chambarchas aloqador. U bu fazilatga quyidagicha ta'rif beradi: "Fidoiylilik – bu insonning o'z manfaatlaridan voz kechib, boshqalar manfaati yo'lida harakat qilishi. Bu esa uni ijtimoiy jonzot sifatida kamolga yetkazadi"[1].

Professorning ta'kidlashicha, bunday xulq-atvor tabiiy holatda shakllanmaydi. Aksincha, u bolalikdan boshlab beriladigan tarbiya, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy muhit ta'siri va shaxsning individual fazilatlari orqali rivojlanadi.

"Oila psixologiyasi" asarida Vasila Karimova fidoiylilik tushunchasini ayniqsa oilaviy qadriyatlar kontekstida chuqur tahlil etadi. U bu borada shunday deydi: "Fidoiylilik – oilaviy muhabbat, mehr-oqibat va o'zaro hurmat muhitida shakllanadi. Farzandlarda bu sifatni shakllantirish – ota-onalarning asosiy ijtimoiy burchidir" [2]. Boshqacha aytganda, fidoiylilik avvalo oilaviy munosabatlarda – yaqinlarga nisbatan sadoqat va yordam ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. Mazkur xatti-harakatlar esa keyinchalik bosqichma-bosqich kengroq ijtimoiy qadriyatlarga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2024-yilda chop etilgan maqolasida Vasila Karimova fidoiylilikni nikohga psixologik tayyorgarlik darajasining muhim mezon sifatida baholaydi. Uning fikricha, haqiqiy nikoh mas'uliyatli va yetuk shaxslar o'rtasida tuziladi, bu esa, o'z navbatida, fidoiylilik fazilatini talab etadi. U shunday yozadi: "Nikohdagi fidoiylilik – bu faqat romantik tuyg'ular emas, balki bir-biriga nisbatan mas'uliyat, sadoqat va fidokorlik bilan yondashish fazilatidir. Nikohga yetuklik darajasi fidoiylilik darajasidan ajralmasdir" [1].

Xulosa qilib aytganda, V.Karimovaning ilmiy qarashlari fidoiylilik tushunchasini faqat axloqiy ideal sifatida emas, balki shaxsiyat psixologiyasining asosiy unsurlaridan biri, ijtimoiy ong, mas'uliyat va madaniyatni shakllantiruvchi vosita sifatida yoritadi. U o'z ishlarida bu sifatni rivojlantirishda tarbiya, shaxsiy qadriyatlar tizimi va ijtimoiy modelning roli katta ekanligini isbotlaydi.

Shuningdek, G.T. Jo'rayev o'zining dissertatsiyasida fidoiylilikni shaxsning ijtimoiy-hissiy va axloqiy sifatlar tizimida muhim ijtimoiy-psixologik



konstruktor sifatida ko'rib chiqadi. Unga ko'ra, fidoiylilik - bu nafaqat shaxsning o'z oilasi, do'stlari yoki guruhiga sadoqatlilik hissi, balki kengroq ijtimoiy identitet va axloqiy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq murakkab psixologik holatdir[3]. Uning fikricha, fidoiylilik yoshlarda shaxsning o'ziga xos ijtimoiy motivatsiyasi, axloqiy e'tiqodlari va o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglash bilan mustahkamlanadi.

Mazkur ijtimoiy-psixologik konstruktor bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan iborat: altruizm, mas'uliyat, fidoyilik, shuningdek, ijtimoiy identitet. Bu komponentlarning o'zaro ta'sirini tahlil qilib, fidoiylilikni individual shaxsiy xususiyatlar doirasidan tashqarida, ijtimoiy va madaniy kontekstda tushunishga urg'u beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhat:

1. Karimova V., Oila psixologiyasi, 2007, 122-bet
2. Leontyev, A. N. (1975). Deystviye, soznaniye, lichnost [Faoliyat, ong, shaxs]. Moskva: Politizdat
3. Jo'rayev, G.T. Yoshlarda fidoiylilik hissi shakllanishining psixologik xususiyatlari: Psixol.fan.nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2013

